

TALABA SHAXSIGA – SHAXSIY YONDASHUV TA'LIM MUAMMOLARINING YECHIMI SIFATIDA.

*Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi, mehnat sohasini boshqarish fakulteti
uslubchisi
Farxodova Mahliyobonu Xusanjon qizi.
mahliyobonufarxodova@gmail.com*

Kirish. Har bir inson tabiatning alohida mo'jizasi. Talabaning mana shu o'ziga xoslikni o'zida kashf etishida pedagogning o'rni beqiyos. Albatta, joriy o'quv yilida hujjat topshirgan abituriyentlarning kirish imtihonlaridagi past ko'rsatkichi tajribali professor-o'qituvchilarni mavzular mohiyatini talabaga tushuntirish vaqtida qiyin ahvolga solib qo'yemoqda. Abituriyentning asosiy vaqt test yodlashga ketadi. Testlar ichida mantiqiy savollar ham bor, biroq ular mavzular mohiyatini anglash uchun yetarli emas. Masalan, O'zbekiston tarixidagi bir voqeani tushuntirish uchun 1918-yilda nima bo'lganini so'raysiz. Sanoqlilarigina bu yilda Turkiston muxtoriyati qonga botirilganini aytadi. Ammo bu savolga javob topganlar ham voqealar qanday kechganligini, qanchadan-qancha odamlar nobud bo'lganini va eng asosiysi bu manfur ishni kimlar, nima maqsadda bajarganini izohlashga, tahlil qilishga qurbi yetmaydi. Holbuki, tarixning bu sahifalaridagi voqealar kelgusida takrorlanmasligi uchun qaysi kasbni tanlab, o'qiyotganidan qat'i nazar, talaba voqeanning tub mohiyati, negizini tushunishi va tushuntirib bera olishi ham kerak. Shuning uchun bunday vaziyatlarda umumta'lim maktabi dasturlariga qaytish zarurati tug'iladi. Tabiiyki, bu professoring vazifasiga kirmaydi. Shunday bo'lsa-da, amaldagi mavzudan chekinib, besh-o'n daqiqa vaqt sarflab, talabalar bilimidagi kamchiliklarning asosiy jihatlariga e'tibor qaratishimiz, talabalarga tushuntirib, yuqori ta'lim olishni davom ettirishlariga erishishimiz zarur. Ammo globallashuv davrida jahonda ilm-fan, texnika va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotganini aslo ko'zdan qochirib bo'lmaydi. Bu esa o'z navbatida ta'lim, ilm-fan

oldiga yangi talablarni ko‘ndalang qo‘ymoqda. Ta’lim tizimini muntazam isloh etish, o‘qitishning zamonaviy usul va vositalarini takomillashtirish, ta’lim mazmunini boyitib borish, demak, bugungi kunning ham dolzarb talabi bo‘lib qolaveradi. Bugun amaldagi ta’lim tizimimiz zamonaviy, rivojlangan davlatlardagi kabi globallashuv talablariga javob bera olayaptimi? Ta’lim tizimida yechimini kutayotgan qanday muammolar bor? Kadrlar tayyorlash milliy tizimining globallashuv jarayonida bozor talablariga to‘liq javob bermasligi, ta’lim tizimida o‘quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi takomiliga yetkazilmaganligi, yuksak malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi, hozirgi zamon talablariga mos o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlar kamligi, fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasida o‘zaro aloqaning zaifligi tizimdagi kamchiliklardan hisoblanadi. Bugungi kunda o‘quv muassasalarini bitirib chiqayotgan o‘quvchi va talabalarda mustaqil fikrlesh layoqati to‘la rivojlangan, deb bo‘lmaydi. Ularda ilm-fan yutuqlariga, amaliyotga tayangan yechimlar qabul qilish uchun malaka va bilim yetarli emas. Shu bois maktab, kollej va akademik litseylarni bitirgan yoshlarimizning ko‘pchiligi mustaqil hayotda o‘z o‘rnini topa olmayapti. Sir emas, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining taxminan 10 foizigina oliy o‘quv yurtlariga birinchi yili o‘qishga kirmoqda, xolos. Ushbu muammolarni bartaraf qilish uchun boshqa bir qator muammolarni bartaraf qilish zarur. Jumladan, maktab muhitni Maktablarda ilmiy muhitning yo‘qligi malakali kadrlar yetishmovchiligidagi va malakasiz kadrlarning ko‘pligiga olib keladi. Maktablarda o‘qituvchilar o‘z ustida ishlamay qo‘yan. Aksariyat ishsiz oliy ma’lumotlilar, qayta tayyorlovdan o’tgan holda o‘ziga umuman begona bo‘lgan soha pedagogika bilan shug’ullanadi. Bakalavriat davrida umuman boshqa sohada o‘qigan kadr, mehnat faoliyatini boshqa sohada boshlashi tabiiyki shu sohaning orqaga ketishiga qaysidir ma’noda sabab bo‘ladi. Ko‘zbo‘yamachilikka aylangan pedagogic mahorat va pedagogik texnologiya. Aksariyat pedagoglar vaqtinna naqdini kelgan tekshiruvchilar tili bilan aytganda “pedagogik mahorat quroli” bo‘lgan ko‘rgazmalar, stendlar, plakatlar, slaydlar, multimedia....larga sarflashadi. Og‘zaki yetkazib berish jihatiga deyarli etibor qaratishmaydi. Holbuki matematika o‘qituvchisi

slaydda misol yechgandan ko'ra oddiy bo'r bilan dars o'tgani menimcha o'quvchi, talabaga tushunarli bo'ladi. Talabalarni fanlarga, oliv ta'limga qiziqtirish o'rniga talabaning tashqi ko'rinishi, odob – axloq qonun qoidalari, o'zini universitet hududi va talabalar yotoqxonasida qay tartibda tutish kerakligi haqidagi muammolar Universitet rahbariyatining asosiy muammolariga aylanib qolgan. Agar universitet ishlab chiqqan ichki – tartib qoidalarga to'liq amal qilinib bir ikkita talaba haqiqatdan jazolansa, odob – axloq qoidalari ham o'z o'zidan to'g'ri va joyida ishlaydi. Muammolarni sanab va izohlab o'tadigan bo'lsak ular talaygina. Ammo baribir ular qachondir o'z yechimini topadi. Bugun ushbu maqolada asosiy muammo sifatida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va uning o'ziga xos jihatlari haqida to'xtalib o'tmoqchiman. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim bu o'z nomidan ma'lumki dars mashg'ulotlari va topshiriqlarni talabaning shaxsiy qiziqishlari va individual xususiyatlardan kelib chiqqan holda berilishi lozim. Bunda albatta yetuk sohasining, kasbining mutaxasisi bo'limgan pedagog ming urinsa ham talabaning individual xususiyatidan kelib chiqqan holda topshiriq bera olmaydi. Buning uchun uning o'zida kuchli baza mavjud bo'lishi lozim. Oxirgi besh yillikda aksariyat oliv ta'lim muaassalari oliv ta'limning kredit modul tizimida o'qitishga o'tishdi bu tizimning o'ziga xoslik va ayniylik belgisi shundaki bu tizimda aynan har bir talaba o'zini shaxsiy nomoyon qilishi uchun o'quv yuklamasining aksariyat qismi 60/40 nisbatda mustaqil ta'limga berilayapti. Bunda pedagog yuklamadan kelib chiqqan holda mustaqil ta'lim mavzularini, yo'nalishlarini va loyixalarini talabalarga semester boshida taqdim qiladi. Talaba o'zining shaxsiy xususiyatlari va bilimidan kelib chiqqan holda mavzularni tanlaydi va himoya qiladi. Bu albatta, talabaning boshqa mustaqil ta'lim mavzularini o'rganishdan ozod qilmaydi. Ammo pedagog shu tanlangan mustaqil ta'l;im mavzulari orqali talabalarning qiziqishlarini va taxminiy ma'ruza va amaliy mashg'ulot darslarida ko'proq foydali ma'lumotlar bilan talabalar vaqtini mazmunli o'tkazish harakatida bo'ladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos xususiyatlari:

1. Qiziqtirish
2. To'g'ri yo'naliш berish
3. Fikrni tarbiyalash
4. Motivatsiya uyg'otish

Ta'limga muassasalari o'quv jarayonini tashkil etishda yetarlicha mustaqillikka ega emas, ular mehnat bozorining o'zgaruvchan sharoitlariga yaxshi moslashmagan. Ta'limga muassasalari va ishlab chiqarish tashkilotlarining malakali kadrlarni tayyorlash, ish bilan ta'minlash jarayonidagi hamkorligi qoniqarli deb bo'lmaydi. Davlat ta'limga standartlarini ishlab chiqish va joriy etish ishlari ta'limga muassasalari va ishlab chiqarish tashkilotlari, ish beruvchilar bilan birgalikda keng muhokama qilinmaydi. Tizimdagagi o'qituvchi-pedagoglar katta qismining bilim va kasbiy salohiyati pastligi jiddiy muammo bo'lib qolmoqda, malakali, bilimdon, bozor talablariga mos pedagog kadrlarga ehtiyoj katta.

Ta'limga va ishlab chiqarish sohalarining samarali hamkorligini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning bilimi sifatiga nisbatan korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish ham dolzarb masala sanaladi. Uzluksiz ta'limga va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan, chet el investitsiyalarini jalb etish mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyatga joriy etish lozim. Kadrlar tayyorlash tizimini mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish talab etilmoqda. Kelgusida ham rivojlangan mamlakatlar tajribalari chuqur o'r ganilib, mamlakatimizga xos xususiyatlar, qadriyatlar, sharoitlar inobatga olingan holda kadrlar tayyorlash tizimini tubdan modernizatsiya qilishimiz lozim. Hozir oliy va o'rta maxsus ta'limga vazirligi tomonidan malaka oshirish, chet el professorlarini O'zbekistonga olib kelib ma'ruza o'qitish, bakalavr va magistr dasturlarini rivojlangan mamlakatlardagi o'quv dasturlariga yaqinlashtirish ishlari olib borilmoqda. Ularning darsliklari, o'quv standartlari tajriba sifatida qo'llanilmoqda. Bu albatta, yaxshi tashabbus va shu sohadagi ishlarni yanada rivojlantirishimiz lozim. Oliy ta'limga muassasalarida ta'limga rivojlantirish, ta'limga sifatini

ta'minlash va nazorat qilish borasida xorijiy mamlakatlar (Yaponiya, Germaniya, Angliya, Frantsiya, Shvetsiya, AQSh)ning tajribalari O'zbekiston oliv ta'lim tizimidagi holatlar bilan qiyosiy tahlil qilinishi lozim. Bu o'rinda ilg'or mamlakatlarning oliy o'quv dargohlari bilan xalqaro ilmiy-pedagogik aloqalarni rivojlantirish, xalqaro ta'lim dasturlarida ishtirok etish, xalqaro loyiha va dasturlarda qatnashish uchun buyurtmalar berish, mamlakat ilm-fanining xalqaro ilmiy hamjamiyatga qo'shilishini faollashtirish maqsadida olimlar va pedagoglar bilan o'zaro fikr almashinuv jarayonini kuchaytirish lozim.

Xulosa va takliflar: Xulosa qilib aytish mumkinki, oliy o'quv yurtlarining ko'payishi, qabul qilinadigan o'rirlarning oshganligi, alaloqibat, yoshlarning universitet va institutlarga intilishi yurtimiz taraqqiyotida o'z natijasini ko'rsatadi. Faqat endi ta'lim sifati, imtihonlarning shaffofligiga yana ham ko'p diqqat qaratishimiz, fanni o'zlashtirmagan talabalarni "o'zbekchiligmizga borib" keyingi kursga o'tkazmasligimiz darkor. Akademik halollikka urg'u berilsa, ko'pgina muammolar o'z-o'zidan yechimini topadi. Aks holda, ta'limda vujudga keladigan har qanday muammo taraqqiyotga to'siq bo'lishi muqarrar. Muammolarni o'z vaqtida bartaraf etish esa taraqqiyot garovidir.

References

1. Rashid QULMATOV kimyo fanlari doktori O'zMU professori
<https://uzhurriyat.uz/2017/02/22/ta-lim-tizimi-muammo-va-yechimlar/>
2. Halim SAIDOV filologiya fanlari doktori <https://edujournal.uz/1064/>
3. Taxririyat "қозонида қайнаган" ёш журналистлар // "Ma'rifat" газетаси, 2018 йил 23 май.
4. <https://lex.uz/uz/docs/6083381>.
5. Rahmonova, S. (2023). DYNAMICS AND MAIN DIRECTIONS OF SPIRITUAL AND CULTURAL REFORMS IMPLEMENTED IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 850-854.
6. Rahmonova, S. (2023). YANGI O 'ZBEKİSTONDA MA'NAVİY-MADANIY ISLOHOTLAR. Current approaches and new research in modern sciences, 2(10), 40-43.
7. Rahmonova, S. (2023). YUKSAK MA'NAVİYATLÍ AVLOD-UCHİNCHÍ RENESSANS BUNYODKORLARI. *Наука и технология в современном мире*, 2(3), 76-79.
8. Rahmonova, S. (2024). THE REFORMS IMPLEMENTED IN NEW UZBEKISTAN ARE THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE. *Modern Science and Research*, 3(2), 394-399.
9. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).